



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

No2



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2026



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Elektron nashr. 2026-yil, fevral.

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoiraz Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukurimova Dinara Rustamxanovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikrarov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirathbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhriddinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoiraz Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyeich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyea Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukarimova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

TIJORAT BANKLARINING INVESTITSIYA LOYIHALARINI KREDITLASH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	40
Faxriddinov Temur Faxriddin o'g'li	
TEMIR YO'L YO'LLARINI TA'MIRLASH KORXONALARINING IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISH OMILLARI.....	46
Allabergenov Sherzod Maksudbayevich	
BANKLARNI TRANSFORMATSIYALASH JARAYONIDA INVESTITSION KREDITLASHNING XORIJ TAJRIBASI.....	51
Tuxsanov Eldor Dilmurod o'g'li	
O'ZBEKISTONDA BUDJET OCHIQLIGINI TA'MINLASH BO'YICHA QONUNCHILIK BAZASINING EVOLYUTSIYASI VA RIVOJLANISH BOSQICHLARI.....	55
Mamanov Alisher Umbarovich	
ENERGETIKA TARMOG'I KORXONALARIDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNI QO'LLASH YO'LLARI.....	60
Xamdamova Gavxar Absamatovna	
SMART UNIVERSITET MODELINING XALQARO TAJRIBASI VA UNI YANGI O'ZBEKISTON TA'LIM TIZIMIGA MOSLASHTIRISH MASALALARI.....	65
Saloxiddinova Sitora Baxodir qizi	
IJTIMOIIY OBYEKTlarda QURILISH XIZMATLARINI MOLiyALASHTIRISHNING NAZARIY – ASOSIY TAMOIYILLARI.....	68
Gapparov Azim Qayumovich	
QURILISH MATERIALLARI SANOATI KORXONALARINING ISHLAB CHIQRISH FAOLIYATIGA RAQAMLI TRANSFORMATSIYANI JORIY ETISH ORQALI RAQOBATBARDOSHLIKNI TA'MINLASH.....	72
Zaripov Shoxboz Alijon o'g'li	
O'ZBEKISTONDA MASOFAVIY BANK XIZMATLARINING IQTISODIY VA IJTIMOIIY BARQARORLIKKA TA'SIRI.....	75
Kolmatova Asila Menglimurod qizi	
РОЛЬ GREEN BONDS В МЕЖДУНАРОДНОЙ ФИНАНСОВОЙ СТРАТЕГИИ КОММЕРЧЕСКИХ БАНКОВ.....	81
Н.Т. Бекназарова	
BARQAROR RIVOJLANISH SHAROITIDA EKOLOGIK BOSHQARUV VA AUDIT.....	86
Shaymatova Nargiza Ashurovna	
NORASMIY IQTISODIYOTNING MAVJUDLIGINING NAZARIY MASALALARI VA UNI ANIQLASHNING USLUBIY YONDASHUVLARI.....	93
Alimardonov G'ayratjon Nuraliyevich	
DIGITAL TWIN-BASED DECISION SUPPORT FOR COST OPTIMIZATION AND RISK MANAGEMENT IN INFRASTRUCTURE SYSTEMS.....	99
Nelyufar Umarovna Dadabayeva	
PAXTA BO'LAKCHASINING OG'MA TO'RLI YUZA SIRTI BO'YLAB HAVO OQIMI TA'SIRIDAGI HARAKATINING MATEMATIK MODELI.....	108
Karimov Abdusamat	
АДАПТИВНОСТЬ НАЦИОНАЛЬНОЙ ЭКОНОМИКИ К ВНЕШНИМ РИСКАМ И ГЕОЭКОНОМИЧЕСКИМ ТЕНДЕНЦИЯМ.....	115
Бабаджанов Шухрат Атхамович	
“TIBBIYOT BOZORINING UZLUKSIZ RIVOJLANISHI UCHUN MEXANIZMLARNI TAKOMILLASHTIRISH YONDASHUVLARI”.....	120
Abdumalikov Shoxjahon Jaloliddin o'g'li	
KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNING MEHNAT BOZORI RIVOJLANISHIDAGI ROLI VA BANDLIKKA TA'SIRI.....	124
Egamberdiyev Abdujabbor Xusanovich	



XORAZM VILOYATIDA ETNOGRAFIK TURIZMNI BARQAROR RIVOJLANTIRISH MEXANIZMINING AHAMIYATI	129
Ro'zimatova Shaxlo Baltaboy qizi	
THE FEAR OF MISSING OUT (FOMO) EFFECT IN ADVERTISING AND ITS NEUROPSYCHOLOGICAL IMPACT ON IMPULSE BUYING	134
Negmatov Nodir Nozimovich	
O'ZBEKISTONDA TRANSPORT XIZMATINI TASHKIL ETISHNING ASOSIY IQTISODIY KO'RSATKICHLARI VA TENDENSIYALARI TAHLILI.....	139
Aytiyeva Sevara	
TO'QIMACHILIK SANOATIDA INVESTITSION LOYIHALARNI BOSHQARISH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR.....	144
Qurbonov Jasurbek Pozilovich	
YASHIL IQTISODIYOTNING MOHIYATI VA O'ZBEKISTON UCHUN AHAMIYATI	149
Abdullayeva Matluba Nematovna, Nuriddinov Kamoliddin Faxriddin o'g'li	
XIZMAT KO'RSATISH SOHASIDA KICHIK KORXONALAR RAQOBATBARDOSHLIGIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR TAHLILI	155
Axmedov Sanjar Temur o'g'li	
POPULATION IMPACT ON CONSUMER CULTURE AND NATIONAL ECONOMIC GROWTH.....	160
Rustamov Sherov Oblokulovich	
AVTOTRANSPORT KORXONALARINING IQTISODIY KO'RSATKICHLARI TAHLILI VA ULARNI YAXSHILASHGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR.....	164
Laylo Akbarova, Komolov Adxam Dilshod o'g'li	
MODELING THE DIFFUSION OF DIGITAL BANKING ADOPTION IN UZBEKISTAN: EVIDENCE FROM TBC BANK USING THE BASS DIFFUSION MODEL AND A HYBRID REGRESSION APPROACH	169
Feruza Nabieva	
YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA EKOLOGIK XARAJATLARNI BUXGALTERIYA HISOBIDA AKS ETTIRISH VA BAHOLASH	176
Rabbimov Elbek Abdulloyevich, G'afforov Ilhom Ilyosjonovich, Ergashev Olloyor Furqat o'g'li	



YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA EKOLOGIK XARAJATLARNI BUXGALTERIYA HISOBIDA AKS ETIRISH VA BAHOLASH

Rabbimov Elbek Abdulloyevich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filiali (TDIU SF),
"Buxgalteriya hisobi va statistika" kafedrası dotsenti

G'afforov Ilhom Ilyosjonovich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filiali (TDIU SF),
"Buxgalteriya hisobi va statistika" kafedrası assistenti

Ergashev Olloyor Furqat o'g'li

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filiali (TDIU SF),
tayanch doktranti

E-mail: ergashevolloyor53@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada korxonalarda atrof-muhit bilan bog'liq xarajatlarni hisobga olishning zamonaviy yondashuvlari hamda ularning iqtisodiy samaradorlikka ta'siri tahlil qilinadi. Tadqiqot doirasida ekologik xarajatlarni aniqlash, baholash va moliyaviy hisobotlarda aks ettirishning turli usullari, jumladan, umumiy xarajatlar, to'g'ridan-to'g'ri ekologik xarajatlar, jarayonlarga asoslangan yondashuv va to'liq ekologik hisob konsepsiyalari ko'rib chiqiladi. Shuningdek, ekologik xarajatlarning investitsiya yoki joriy xarajat sifatida tan olinishi masalasi xalqaro buxgalteriya hisobi standartlari (IAS/IFRS) nuqtai nazaridan tahlil etiladi. Tadqiqot natijalari korxonalarda ekologik xarajatlarni boshqarish va hisobga olish amaliyotini takomillashtirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: atrof-muhit; ekologik xarajatlar; javobgarlik; umumiy xarajatlar; to'g'ridan-to'g'ri ekologik xarajatlar; IAS/IFRS.

Abstract. This article analyzes modern approaches to accounting for environmental costs in enterprises and their impact on economic efficiency. The study examines various methods of identifying, measuring, and reporting environmental costs, including total cost approaches, direct environmental costs, process-based costing, and full environmental accounting concepts. Special attention is given to the recognition of environmental costs as either investment or current expenses from the perspective of International Accounting Standards/International Financial Reporting Standards (IAS/IFRS). The findings contribute to improving environmental cost management and accounting practices in enterprises.

Key words: environment; environmental costs; responsibility; total costs; direct environmental costs; IAS/IFRS.

Аннотация. В статье анализируются современные подходы к учёту экологических затрат на предприятиях и их влияние на экономическую эффективность. В рамках исследования рассматриваются различные методы идентификации, оценки и отражения экологических затрат в финансовой отчётности, включая подходы общих затрат, прямых экологических затрат, процессно-ориентированный подход и концепцию полного экологического учёта. Особое внимание уделяется вопросу признания экологических затрат в качестве инвестиционных или текущих расходов с точки зрения международных стандартов финансовой отчётности (IAS/IFRS). Полученные результаты способствуют совершенствованию практики управления и учёта экологических затрат на предприятиях.

Ключевые слова: окружающая среда; экологические затраты; ответственность; общие затраты; прямые экологические затраты; IAS/IFRS.

KIRISH

Yashil iqtisodiyotga o'tish zamonaviy global rivojlanishning muhim yo'nalishlaridan biri bo'lib, u iqtisodiy o'sishni atrof-muhitni muhofaza qilish hamda ijtimoiy farovonlik bilan uyg'unlashtirishni taqozo etadi. Ushbu



sharoitda korxonalar faoliyati nafaqat moliyaviy natijalar asosida, balki tabiiy kapitaldan foydalanish samaradorligi va ekologik ta'sir ko'rsatkichlari orqali ham baholanadi.

Tabiiy kapital iste'moli resurslarning kamayishi, atrof-muhitning ifloslanishi va ekologik muvozanatning buzilishi shaklida namoyon bo'ladi. Bartelmus ta'kidlaganidek, tabiiy kapitalning qisqarishi iqtisodiy hisob-kitoblarda albatta aks ettirilishi lozim bo'lgan muhim jarayondir. Yashil iqtisodiyot konsepsiyasi aynan ushbu jarayonlarni tizimli ravishda hisobga olish hamda ekologik xarajatlarni iqtisodiy qarorlar qabul qilish markaziga qo'yishni nazarda tutadi.

Shu nuqtai nazardan, atrof-muhit xarajatlarini hisobga olish yashil iqtisodiyotning muhim instrumenti sifatida namoyon bo'lib, u korxonalarga ekologik mas'uliyatni iqtisodiy samaradorlik bilan uzviy bog'lash imkonini beradi. Mazkur maqolaning asosiy maqsadi yashil iqtisodiyot sharoitida ekologik xarajatlarni hisobga olish yondashuvlarini tahlil qilish va ularni baholashdan iborat.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Yashil iqtisodiyotga o'tish sharoitida atrof-muhit xarajatlarini hisobga olish masalasi iqtisodiy va buxgalteriya tadqiqotlarining muhim yo'nalishiga aylandi. Korxonalar faoliyatida ekologik omillarni inobatga olish barqaror rivojlanishni ta'minlash, resurslardan samarali foydalanish hamda ekologik xavflarni kamaytirishga xizmat qiladi. Ushbu yo'nalishda xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan ekologik xarajatlarni aniqlash, baholash va hisobga olishning turli yondashuvlari ishlab chiqilgan. Quyida atrof-muhit xarajatlarini hisobga olish bo'yicha mavjud ilmiy adabiyotlar tahlil qilinib, ularning asosiy g'oyalari yoritiladi.

Xorijiy olimlar orasida P. Dasgupta "The Economics of Biodiversity" asarida tabiiy kapitalni iqtisodiy tizimning ajralmas qismi sifatida talqin qiladi. Uning fikricha, tabiatdan foydalanish bilan bog'liq xarajatlar iqtisodiy qarorlar va moliyaviy hisobotlarda aks ettirilmasa, bozor mexanizmlari to'liq va samarali signallar bera olmaydi. Olim ekologik xarajatlarni izchil hisobga olish yashil iqtisodiyotga o'tishning muhim sharti ekanligini ta'kidlaydi hamda ushbu yondashuv korxonalarda atrof-muhit xarajatlarini strategik boshqaruv vositasiga aylantirishini asoslaydi.

S. Schaltegger va R. Burritt "Contemporary Environmental Accounting: Issues, Concepts and Practice" asarida buxgalteriya hisobini faqat xarajatlarni qayd etuvchi tizim sifatida emas, balki strategik boshqaruv instrumenti sifatida talqin etadilar. Ularning fikricha, ekologik xarajatlarni mahsulot, jarayon va faoliyatlar kesimida hisobga olish korxonalarga ekologik samaradorlikni oshirish bilan bir qatorda iqtisodiy foyda yaratish imkonini beradi. Olimlar ekologik hisob korxona raqobatbardoshligini kuchaytiruvchi muhim omil ekanligini ta'kidlaydilar.

J. Bebbington va J. Tan "Chartered Accountants Journal of New Zealand" jurnalida chop etilgan "Sustainability Accounting" maqolasida barqarorlik hisobini ekologik, iqtisodiy va ijtimoiy omillarning integratsiyasi sifatida ko'rib chiqadilar. Ularning tadqiqotlarida atrof-muhit xarajatlarini hisobga olish nafaqat moliyaviy natijalarni baholash, balki korxonaning jamiyat oldidagi javobgarligini aniqlash imkonini berishi qayd etilgan. Ushbu yondashuv yashil iqtisodiyot tamoyillariga to'liq mos keladi, chunki unda iqtisodiy o'sish ekologik muhofaza bilan uyg'unlashtiriladi.

K. Herbohn "Accounting, Organizations and Society" jurnalida chop etilgan "Full Cost Environmental Accounting Experiment" maqolasida to'liq ekologik xarajatlarni hisobga olish yondashuvini ilgari suradi. Olim ekologik zarar, aktivlar qiymatining kamayishi va tashqi ekologik xarajatlarni moliyaviy hisoblarda aks ettirish zarurligini asoslaydi. Uning fikricha, an'anaviy buxgalteriya tizimlari ekologik yo'qotishlarni yetarli darajada aks ettirmaydi, bu esa yashil iqtisodiyot maqsadlariga to'liq mos kelmaydi.

P. de Beer va F. Friend "Ecological Economics" jurnalida chop etilgan "Environmental Accounting: A Management Tool for Enhancing Corporate Environmental and Economic Performance" maqolasida ekologik xarajatlarni nafaqat moddiy, balki nomoddiy natijalarga ham olib kelishini ko'rsatadilar. Olimlar ekologik imij, manfaatdor tomonlar bilan munosabatlar va ijtimoiy ishonch korxona qiymatiga sezilarli ta'sir ko'rsatishini asoslaydilar. Ushbu yondashuv yashil iqtisodiyot sharoitida ekologik xarajatlarning uzoq muddatli iqtisodiy foydaga aylanishini izohlaydi.

A. K. Pramanik "Environmental Accounting and Reporting" asarida ekologik hisobni joriy etish qarorini imkoniyat xarajatlari nuqtai nazaridan baholaydi. Uning fikricha, ekologik xarajatlarga yo'naltirilgan resurslar qisqa muddatda qo'shimcha xarajat sifatida ko'rinsa-da, uzoq muddatda yashil iqtisodiyot doirasida barqaror iqtisodiy foyda keltiradi. Olim ekologik hisob tizimini strategik investitsiya sifatida talqin qiladi.

J. Ingram va hammualiflar "Business Strategy and the Environment" jurnalida chop etilgan "Operationalising Natural Capital Accounting for Business Decision-Making" maqolasida natural capital accounting (NCA) korxonalarning investitsiya, ta'minot zanjiri va risklarni boshqarish bo'yicha qarorlarini takomillashtirishini ko'rsatadilar. Ularning fikricha, ekologik xarajatlarni tizimli ravishda hisobga olish yashil iqtisodiyot sharoitida biznesning uzoq muddatli barqarorligini ta'minlaydi.



O'zbekiston olimlarining tadqiqotlarida ham mazkur masala keng yoritilgan. Jumladan, Yo'ldoshev B. "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy-elektron jurnalida chop etilgan "Ekologik xavfsizlikni ta'minlashning iqtisodiy mexanizmlari" maqolasida ekologik xavfsizlikni ta'minlashda iqtisodiy mexanizmlarning rolini tahlil qiladi. U ekologik to'lovlar, jarimalar va kompensatsiya xarajatlari korxonalar faoliyatiga sezilarli ta'sir ko'rsatishini asoslaydi hamda ekologik xarajatlarni hisobga olish resurs tejamkor texnologiyalarni joriy etishda muhim rag'batlantiruvchi omil ekanligini ta'kidlaydi.

Xudoyberganov N. "Iqtisodiyot va ta'lim" jurnalida chop etilgan "Korxonalarda ekologik menejment tizimlarini joriy etishning iqtisodiy samaradorligi" maqolasida ekologik menejment tizimlari doirasida ekologik xarajatlarni boshqarish samaradorlikni oshirishga xizmat qilishini ko'rsatadi. Uning fikricha, ekologik xarajatlarni alohida hisobga olish va doimiy monitoring qilish korxonalarga ekologik xavflarni kamaytirish bilan birga iqtisodiy foyda olish imkonini beradi.

Qodirov Sh. "Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil" jurnalida chop etilgan "O'zbekistonda yashil iqtisodiyotga o'tishning asosiy yo'nalishlari va muammolari" maqolasida respublika sharoitida yashil iqtisodiyotga o'tish jarayonini tahlil qilib, ekologik investitsiyalar va ekologik xarajatlarning roliga alohida e'tibor qaratadi. Olim ekologik xarajatlarni joriy xarajat emas, balki uzoq muddatli investitsiya sifatida ko'rish zarurligini asoslaydi.

Rahmonov D. "Tabiiy resurslardan oqilona foydalanishning iqtisodiy mexanizmlari" monografiyasida tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va ekologik cheklavlarni iqtisodiy modellashtirish masalalarini yoritadi. U ekologik xarajatlarni hisobga olish orqali tabiiy resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish mumkinligini ko'rsatadi hamda yashil iqtisodiyot sharoitida tabiiy kapitalni saqlash va iqtisodiy manfaatlarni muvofiqlashtirish zarurligini asoslaydi.

Tursunov M. "Moliyaviy-iqtisodiy tahlil" jurnalida chop etilgan "Ekologik investitsiyalarning iqtisodiy o'sishga ta'siri (O'zbekiston misolida)" maqolasida ekologik investitsiyalar va iqtisodiy o'sish o'rtasidagi bog'liqlikni empirik tahlil qiladi. Uning tadqiqotlarida ekologik xarajatlarni kapitallashtirish yashil iqtisodiyot sharoitida innovatsiyalarni rag'batlantirishi va uzoq muddatli iqtisodiy o'sishga xizmat qilishi qayd etilgan hamda ushbu yondashuv xalqaro IAS/IFRS standartlari bilan uyg'unligi ko'rsatilgan.

Umuman olganda, O'zbekiston olimlarining ilmiy tadqiqotlari atrof-muhit xarajatlarini hisobga olish masalasi milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishi uchun muhim ahamiyatga ega ekanligini tasdiqlaydi. Ularning ishlari xorijiy olimlar yondashuvlari bilan uyg'un bo'lib, yashil iqtisodiyot sharoitida ekologik xarajatlarni strategik boshqaruv va iqtisodiy rejalashtirishning muhim instrumenti sifatida talqin qilish zarurligini asoslaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot sifat tahliliga asoslanib, yashil buxgalteriya va yashil iqtisodiyot bo'yicha ilmiy manbalarni kompleks o'rganishni nazarda tutadi. Metodologik asos sifatida xalqaro moliyaviy hisobot standartlari (IAS/IFRS), ekologik hisob tizimlari hamda Yevropa va xalqaro amaliyot tajribalaridan foydalanildi.

Tadqiqot jarayonida ekologik xarajatlarni hisobga olishning umumiy, to'g'ridan-to'g'ri va jarayonlarga asoslangan yondashuvlari, ekologik xarajatlarning investitsiya yoki joriy xarajat sifatida tan olinishi masalalari, shuningdek, yashil texnologiyalar va profilaktik ekologik choralarning iqtisodiy samaradorligi tizimli ravishda tahlil qilindi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, yashil iqtisodiyot sharoitida atrof-muhit xarajatlarini hisobga olish yondashuvlari ularning maqsadi, qamrovi hamda boshqaruv qarorlariga ta'siri jihatidan sezilarli darajada farqlanadi. Yashil iqtisodiyot talablariga mos yondashuvlar esa ekologik xarajatlarni ishlab chiqarish jarayonlari hamda ekologik investitsiyalar bilan bevosita bog'lashni nazarda tutadi. Quyida 1-jadvalda atrof-muhit xarajatlarini hisobga olish yondashuvlarining taqqoslama tahlili keltiriladi (1-jadval).

1-jadval. Atrof-muhit xarajatlarini hisobga olish yondashuvlarining taqqoslama tahlili

Yondashuv turi	Asosiy xususiyatlari	Afzalliklari
Umumiy xarajatlar yondashuvi	Ekologik xarajatlar bilvosita xarajat sifatida hisobga olinadi	Soddalik, mavjud tizimga moslik
To'g'ridan-to'g'ri ekologik xarajatlar	Ekologik muhofaza bilan bog'liq xarajatlar alohida qayd etiladi	Nazorat qulay, muvofiqlik xarajatlari aniq
Jarayonlarga asoslangan yondashuv	Xarajatlar ishlab chiqarish jarayonlari bilan bog'lanadi	Resurs tejamkorlik va chiqindilarni kamaytirish imkoniyati
To'liq ekologik xarajatlarni hisobga olish	Tashqi ekologik xarajatlar ichkilashtiriladi	Yashil iqtisodiyotga to'liq mos



Jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, jarayonlarga asoslangan hamda to'liq ekologik xarajatlarni hisobga olish yondashuvlari yashil iqtisodiyot sharoitida eng istiqbolli yo'nalishlar sifatida baholanadi. Ekologik xarajatlar tarkibi ularning kelib chiqish manbai va iqtisodiy mazmuniga ko'ra turlicha bo'lib, o'tkazilgan tahlil natijalari ekologik xarajatlarning katta qismi ifloslanishni bartaraf etishdan ko'ra, ekologik talablar va boshqaruv qarorlaridan kelib chiqishini ko'rsatadi.

Ekologik xarajatlarni investitsiya yoki joriy xarajat sifatida baholash masalasi bugungi kunda ham dolzarbligini saqlab qolmoqda. O'tkazilgan tahlil ekologik xarajatlarni to'g'ri tasniflash korxonalarning moliyaviy natijalariga bevosita ta'sir ko'rsatishini aniqladi. Xalqaro buxgalteriya hisobi standartlariga muvofiq, kelgusida iqtisodiy foyda keltirishi kutilayotgan ekologik xarajatlar investitsiya (aktiv) sifatida tan olinadi (2-jadval).

2-jadval. Ekologik xarajatlarni baholash natijalari

Xarajat turi	Hisobga olish shakli	Yashil iqtisodiyotga ta'siri
Toza texnologiyalarni joriy etish	Aktiv (kapitallashtiriladi)	Resurs tejamkorlik
Ifloslanishni bartaraf etish	Joriy xarajat	Ekologik zarar oqibatlarini yumshatadi
Ekologik monitoring tizimi	Aktiv / joriy (shartli)	Shaffoflik va boshqaruv sifatini oshiradi

Jadval tahlili shuni ko'rsatadiki, yashil iqtisodiyot sharoitida ekologik xarajatlarni investitsiya sifatida ko'rib chiqish korxonalarning uzoq muddatli iqtisodiy manfaatlariga mos keladi. Ushbu yondashuv ekologik mas'uliyatni strategik rivojlanish maqsadlari bilan uyg'unlashtirishga hamda resurslardan samarali foydalanishga xizmat qiladi.


O'zbekiston sharoitida ekologik xarajatlar bilan bog'liq statistik ma'lumotlarning tahlili shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, 2024-yilda atmosferaga chiqarilgan ifloslantiruvchi moddalar umumiy hajmi 924,4 ming tonnani tashkil etgan. Mazkur ko'rsatkich hududlar kesimida sezilarli farqlanishlarga ega bo'lib, bu ekologik yuklamaning hududiy konsentratsiyasini hamda ekologik xarajatlarni manzilli rejalashtirish zaruratini yaqqol namoyon etadi (3-jadval).

3-jadval. Atmosferaga chiqarilgan ifloslantiruvchi moddalar hududiy taqsimoti (2024-yil)¹

Hudud	Ulushi (%)
Toshkent viloyati	46,5
Qashqadaryo viloyati	13,9
Jizzax viloyati	0,4
Surxondaryo viloyati	0,7
Xorazm viloyati	0,7
Boshqa hududlar	37,8
Jami	100

Diagramma ma'lumotlaridan ko'rinadiki, atmosfera ifloslanishining qariyb yarmi, ya'ni 46,5 %, Toshkent viloyati hissasiga to'g'ri keladi. Bu holat hududda sanoat korxonalari va energetika obyektlarining yuqori darajada kontsentratsiyalanganligi bilan izohlanadi. Qashqadaryo viloyati 13,9 % ulush bilan ikkinchi o'rinni egallaydi. Qolgan hududlarning ulushi nisbatan past bo'lib, ularning jami hissasi "37,8 %"ni tashkil etadi (1-rasm).

1 O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi, "Atmosferaga chiqarilgan ifloslantiruvchi moddalar miqdori" (2024), <https://stat.uz/uz/>.



1-rasm. Atmosferaga chiqarilgan ifloslantiruvchi moddalar hududiy taqsimoti (2024-yil)

Mazkur statistik holat ekologik xarajatlarni hisobga olish va boshqarishda hududiy yondashuvni qo'llash zarurligini ko'rsatadi. Ayniqsa, sanoat zich joylashgan hududlarda profilaktik ekologik chora-tadbirlar hamda ekologik investitsiyalar hajmini oshirish ustuvor ahamiyat kasb etadi. Keltirilgan statistik ma'lumotlardan kelib chiqib, korxonalarda ekologik xarajatlar tarkibi atmosfera ifloslanishining yuqori darajasi sharoitida profilaktik chora-tadbirlar ulushining ortishi, hududiy konsentratsiya sharoitida monitoring va hisobot xarajatlari ehtiyojning kuchayishi, shuningdek, sanoat faoliyati yuqori bo'lgan hududlarda muvofiqlik va ekologik talablar bilan bog'liq xarajatlarning oshishi yo'nalishlarida shakllanishi asoslanadi. Bu holat ekologik xarajatlarni faqat joriy xarajat sifatida emas, balki yashil iqtisodiyotga o'tishni ta'minlovchi strategik investitsiya sifatida ko'rib chiqish zarurligini ilmiy jihatdan asoslaydi.

O'zbekiston sharoitida ekologik xarajatlarni buxgalteriya hisobida aks ettirish va ularni tan olish bo'yicha quyidagi xulosalarga kelindi.

"Mahsulot (ishlar, xizmatlar)ni ishlab chiqarish va sotish xarajatlari tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to'g'risidagi nizom"ga muvofiq, xarajatlar xo'jalik faoliyati natijasida yuzaga kelgan bo'lsa, iqtisodiy foydaning kamayishiga olib kelsa va ishonchli baholanishi mumkin bo'lsa, tan olinadi. Ekologik xarajatlar, jumladan, ifloslanishning oldini olish, monitoring, muvofiqlikni ta'minlash hamda chiqindilarni boshqarish bilan bog'liq xarajatlar ushbu mezonlarga to'liq mos keladi va shu bois ular alohida hisobda aks ettirilishi lozim.

Shu munosabat bilan ekologik xarajatlar uchun yangi schotlar ochish taklif etiladi. Xususan, ishlab chiqarish xarajatlari tarkibida (2000–schotlar guruhi doirasida) ekologik yo'nalishdagi xarajatlarni aks ettiruvchi maxsus subschotlarni joriy etish ularni aniq hisobga olish, tahlil qilish va boshqaruv qarorlarida samarali foydalanish imkonini beradi (4-jadval).

4-jadval. 2000–schotlar guruhi doirasida ekologik xarajatlar bo'yicha subschotlar

Schot kodi	Schot nomi
2011	Profilaktik ekologik chora-tadbirlar xarajatlari
2012	Chiqindilarni boshqarish va utilizatsiya xarajatlari
2013	Atmosfera va suvni muhofaza qilish xarajatlari
2014	Ekologik texnologiyalarni ekspluatatsiya qilish xarajatlari



Ushbu schotlarda ishlab chiqarish jarayoni bilan bevosita bog'liq bo'lgan ekologik xarajatlar jamlanadi hamda ular mahsulot tannarxiga kiritiladi (5-jadval).

5-jadval. Umumishlab chiqarish xarajatlari tarkibida (2500-schot guruhi)

Schot kodi	Schot nomi
2511	Ekologik monitoring va laboratoriya nazorati xarajatlari
2512	Ekologik xavfsizlikni ta'minlash xarajatlari

Mazkur xarajatlar mahsulot turlari o'rtasida taqsimlanadi hamda ekologik risklarni samarali boshqarishga xizmat qiladi (6-jadval).

6-jadval. Ma'muriy xarajatlar tarkibida (94-schot guruhi)

Schot kodi	Schot nomi
9411	Ekologik hisobot va audit xarajatlari
9412	Ekologik muvofiqlik va ruxsatnomalar xarajatlari
9413	Ekologik konsalting va trening xarajatlari

Mazkur schotlar ekologik boshqaruv hamda strategik qarorlar bilan bog'liq xarajatlarni aks ettirishga xizmat qiladi. Ekologik xarajatlarni investitsiya sifatida tan olish (kapitallashtirish) masalasiga kelsak, agar ushbu xarajatlar ishlab chiqarish quvvatini oshirsa, resurs tejamlilikni ta'minlasa va kelgusida iqtisodiy foyda keltirishi kutilsa, ularni asosiy vositalar yoki nomoddiy aktivlar tarkibida tan olish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Shu munosabat bilan ekologik uskunalar va tozalash inshootlari uchun 0811–schot, ekologik texnologiyalarni (nomoddiy aktivlar) hisobga olish uchun esa 0831–schotdan foydalanish taklif etiladi.

Taklif etilayotgan schotlar tizimi ekologik xarajatlarni aniq identifikatsiya qilish imkonini yaratadi, mahsulot tannarxini real baholashga xizmat qiladi hamda yashil iqtisodiyot sharoitida boshqaruv qarorlarini qabul qilishni samarali qo'llab-quvvatlaydi. Shuningdek, ushbu yondashuv ekologik hisobotlarni shakllantirish va ESG talablariga moslashish jarayonini yengillashtirish orqali korxonalarning barqaror rivojlanish strategiyasini mustahkamlashga ko'maklashadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'tkazilgan tadqiqot natijalari yashil iqtisodiyot sharoitida atrof-muhit xarajatlarini hisobga olish masalasi O'zbekiston iqtisodiyoti uchun dolzarb va strategik ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatdi. Global va milliy statistik ma'lumotlar tahlili, xususan, O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida olib borilgan baholashlar sanoat faoliyati natijasida atmosferaga chiqarilayotgan ifloslantiruvchi moddalar hajmi yuqori ekanligini hamda bu holat sezilarli ekologik va iqtisodiy xarajatlarni keltirib chiqarayotganini tasdiqlaydi.

Tadqiqot davomida aniqlanishicha, amaldagi buxgalteriya hisobida ekologik xarajatlar ko'pincha umumiy xarajatlar tarkibida aks ettiriladi, bu esa ularning shaffofligini pasaytiradi va boshqaruv qarorlarini qabul qilish jarayonini murakkablashtiradi. Shu bilan birga, 21-son BHMS "Xarajatlar" hamda Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 5-fevraldagi 54-son qarori² bilan tasdiqlangan Nizom ekologik xarajatlarni alohida tan olish va ularni iqtisodiy mazmuniga ko'ra guruhlash imkonini beradi hamda bunday yondashuvga huquqiy to'siq bo'lib xizmat qilmaydi.

O'tkazilgan tahlil ekologik xarajatlarni ishlab chiqarish, davr va boshqa operatsion xarajatlar tarkibida alohida subschotlar orqali hisobga olish mahsulot tannarxining haqqoniyligini oshirishini, ekologik risklarni boshqarish imkoniyatlarini kengaytirishini va yashil iqtisodiyot talablariga mos kelishini ko'rsatdi. Soliq solish nuqtai nazaridan esa ishlab chiqarish bilan bevosita bog'liq hamda hujjatlar bilan tasdiqlangan ekologik xarajatlar soliq solinadigan foydani kamaytirishi mumkinligi, ekologik jarimalar va kompensatsiyalar esa soliq chegirmasi sifatida tan olinmasligi aniqlandi. Umuman olganda, ekologik xarajatlarni tizimli ravishda hisobga olish nafaqat atrof-muhitni muhofaza qilishga, balki korxonalarning moliyaviy barqarorligi va raqobatbardoshligini oshirishga ham xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalari asosida bir qator ilmiy-amaliy xulosalar va tavsiyalar shakllantirildi. Xususan, O'zbekiston korxonalarida ekologik xarajatlarni 21-son BHMS talablariga muvofiq alohida subschotlar orqali hisobga olish maqsadga muvofiq bo'lib, bu yondashuv ekologik xarajatlarning shaffofligini oshiradi va boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun ishonchli axborot bazasini yaratadi. Shu bilan birga, 54-son Nizom doirasida ekologik xarajatlarni ishlab chiqarish, davr va boshqa operatsion xarajatlar tarkibida saqlagan holda, buxgalteriya hisobida ularni batafsil tasniflash va maxsus subschotlar ochish amaliyotni takomillashtirishga xizmat qiladi.

2 O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 05.02.1999 yildagi 54-son <https://lex.uz/uz/docs/-264422>.



Kelajakda iqtisodiy foyda keltirishi kutilayotgan ekologik xarajatlarni, jumladan, tozalash inshootlari, ekologik uskunarlar va texnologiyalar bilan bog'liq xarajatlarni asosiy vositalar yoki nomoddiy aktivlar sifatida tan olish hamda ularni amortizatsiya orqali hisobdan chiqarish ekologik investitsiyalarni kapitallashtirishni kengaytirish imkonini beradi. Shuningdek, buxgalteriya va soliq hisobini muvofiqlashtirish, ekologik xarajatlar bo'yicha soliq maqsadida chegiriladigan va chegirilmaydigan xarajatlarni aniq ajratish, doimiy va vaqtinchalik farqlarni alohida reyestrda yuritish korxonalarning soliq risklarini kamaytirishga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, O'zbekiston sharoitida ekologik xarajatlarni buxgalteriya va soliq hisobida tizimli, shaffof hamda amaldagi normativ hujjatlarga mos tarzda aks ettirish yashil iqtisodiyotga o'tishning muhim shartlaridan biridir. Taklif etilgan yondashuvlar korxonalar faoliyatining ekologik va iqtisodiy samaradorligini oshirishga xizmat qiladi hamda milliy buxgalteriya amaliyotini zamonaviy xalqaro tendensiyalarga yaqinlashtiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 5-fevraldagi 54-son qarori. "Mahsulot (ishlar, xizmatlar) tannaxriga kiritiladigan xarajatlar tarkibi va moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to'g'risidagi Nizom". <https://lex.uz/uz/docs/-264422>.
2. O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi. Amaldagi tahrir. <https://lex.uz/docs/-4674902>.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori. 4-oktabr 2019-yildagi PQ-4477-son "2030-yilgacha O'zbekiston Respublikasining yashil iqtisodiyotga o'tish strategiyasi to'g'risida" <https://lex.uz/uz/docs/-4539502>.
4. Schaltegger, S., Burritt, R. (2000). Contemporary Environmental Accounting: Issues, Concepts and Practice. Sheffield: Greenleaf Publishing.
5. Bebbington, J., Tan, J. (1996). Sustainability accounting. Chartered Accountants Journal of New Zealand, 75(6), 75–83.
6. Bebbington, J., Tan, J. (1997). Sustainability accounting. Chartered Accountants Journal of New Zealand, 76(1), 37–42.
7. Herbohn, K. (2005). Full cost environmental accounting experiment. Accounting, Organizations and Society, 30(6), 519–536.
8. de Beer, P., Friend, F. (2006). Environmental accounting: A management tool for enhancing corporate environmental and economic performance. Ecological Economics, 58(3), 548–560.
9. Pramanik, A. K. (2002). Environmental Accounting and Reporting. New Delhi: Deep & Deep Publications Pvt. Ltd.
10. Ingram, J. C., Burgess, N. D., de Groot, R., et al. (2023). Operationalising natural capital accounting for business decision-making. Nature Sustainability, 6, 1245–1254.
11. Ingram, J. C., Addison, P. F. E., Cook, C. N., et al. (2024). Natural capital accounting for corporate risk management and sustainable finance. Business Strategy and the Environment, 33(2), 987–1003.
12. Yo'ldoshev, B. (2018). Ekologik xavfsizlikni ta'minlashning iqtisodiy mexanizmlari. "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy-elektron jurnali, Toshkent.
13. Xudoyberganov, N. (2019). Korxonalarda ekologik menejment tizimlarini joriy etishning iqtisodiy samaradorligi. "Iqtisodiyot va ta'lim" jurnali, № 4.
14. Qodirov, Sh. (2020). O'zbekistonda yashil iqtisodiyotga o'tishning asosiy yo'nalishlari va muammolari. "Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil" jurnali, № 2.
15. Rahmonov, D. (2017). Tabiiy resurslardan oqilona foydalanishning iqtisodiy mexanizmlari. Toshkent: Iqtisodiyot nashriyoti (monografiya).
16. Tursunov, M. (2021). Ekologik investitsiyalarning iqtisodiy o'sishga ta'siri (O'zbekiston misolida). "Moliyaviy-iqtisodiy tahlil" jurnali, № 3.
17. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi rasmiy sayti: <https://stat.uz>.
18. O'zbekiston Respublikasi Ekologiya vazirligi rasmiy sayti: <https://eco.gov.uz>.
19. O'zbekiston Respublikasi Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi: <https://lex.uz>.
20. Jahon banki (World Bank): <https://www.worldbank.org>.
21. Birlashgan Millatlar Tashkiloti – SEEA: <https://seea.un.org>.
22. OECD rasmiy sayti: <https://www.oecd.org>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 2

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
